Необходимость развития коммуникативных компетенций у студентов медицинского ВУЗА.....	572
Шукурова Нодира Тиллаевна, Фуркатова Сабрина Фармоновна	
Oila va maktab hamkorligi asosida o'smir yoshidagi o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari	576
Evatov Saminjon Sobirovich	
Sport mashg'ulotlarida motivatsiyani shakllantirish: pedagogik strategiyalar va vositalar	579
Rajapov G'olibbek Oripovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari	583
Rahmonova Zulayho Abdumalikovna, Buzrukov T. O.	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari.....	586
Israilova Xusnida Adilovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari	590
Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali adabiyot darslarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari	596
Abdullayeva Maftuna Odiljon qizi	
Ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirishda steam texnologiyasidan foydalanish	601
Abdumajitova Sayohat Abduqosimovna	
Pedagogik ta'limni integratsiyalash turlari va didaktik tamoyillari	605
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Raqamli o'quv vositalari yordamida bolalar uchun ingliz tilini o'rganish jarayonini samarali tashkil etishda xalq og'zaki ijodiy namunalaridan foydalanish.....	608
Boqijonova Nargiza Jumanazar qizi, Rajabboyeva Gulchexra Foziljon qizi	
Mehribonlik uylari bolalarida ijtimoiy xulq-atvorning rivojlanishi.....	611
Dilobar Saidova	
Yoshlar tarbiyasida pedagogik konsepsiyalarning roli va ahamiyati	614
Ergashev Oybek Qaxramon o'g'li	
Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni takomillashtirish.....	617
Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra Bahronovna	
Migrant o'quvchilarda pedagogik tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirish metodlari	621
Eshonjonov Bobir Zafarjonovich	
Oliy ta'limda muhandislik faoliyatini ta'minlash metodologiyasi.....	625
Eshonqulov Sherzod Ummatovich	
A Comparative Linguistic Analysis of English and Uzbek Proverbs and Aphoristic Expressions as Structural, Semantic, and Cultural Dimensions	628
Jumayev Sanjar Jurakulovich	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish	631
Komilov Umidjon Normurod o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan loyiha-tadqiqot ishlarini tashkil etishning mazmuni	635
M. X. Tadiyeva	
Raqamli axborot muhitini shakllantirish bosqichida informatika fanining ahamiyatini belgilab beruvchi omillar	639
Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich, Nazarova Madina Abdullayevna, Xolbayeva Gulnora Bakirovna	
Pedagogik konfliktlar: turlari, sabablari va optimal yechimlari	644
Muhammadiyeva Setora Odil qizi	
Subyektga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik-psixologik asoslari	647
Nigora Negmatova	
Mantiqiy masalalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tafakkurini rivojlantirish	651
Pirimova Mohinur Furqat qizi	
Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishning metodik asoslari.....	654
Qurbonnazarova Ziyoda Abdukarim qizi	
O'quvchilarning matematika faniga qiziqishini oshirishda interfaol metodlar va ijodiy yondashuvlarning roli.....	657
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari	660
Rahmonova Zulayho Abdumalikovna, Buzrukov T. O.	
Professional sportda faol ayollar salomatligining monitoringi va ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish strategiyalari	663
Raimov Xamid Soatovich	
O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda harakatli o'yinlardan foydalanish	666
Ravshanova Sabina Bahodir qizi	
Art-terapiyaning bola "men"ining rivojlanishidagi ahamiyati	669
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha yosh davr – bolalar ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida	672
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Eshmirzayeva Mohichehra Ikrom qizi	
5E modeli asosida darsni loyihalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	676
Shodiyeva Matluba Jo'rayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining psixologik xususiyatlari	681
Shukrullayev Ozod Arzuyevich	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	684
Sodiqova Dinara Alisher qizi	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	687
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Narsalarni sanash, miqdorni belgilash uchun qo'llaniladigan matematik vositalar, matematikaning asosiy tushunchalari	691
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	
O'smirlar xulq-atvoriga ommaviy madaniyatning ta'siri	694
Umarova Navbahor Shokirovna, Babayeva Saida Juman qizi	
Nafas olish mashqlarini jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning adaptiv imkoniyatlariga ta'siri	698
Valiyeva N. Y.	
Syujetli-rolli o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish	702
Xalilova Dilnoza Furqatovna	
Talabalar imtihon oldi qo'rquv va xavotirlarining psixologik omillari	705
Xolmatov Zafar Muxtorjon o'g'li	
Umumiy va noorganik kimyo fanini simmetrik yo'nalishdagi tuzilmaviyligini takomillashganligi	708
Xolmurodova Laziza Erkinovna, Xudoyqulova Intizor G'ayrat qizi	
Umumta'lim maktablarida inson resurslarini rivojlantirishga doir zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari	711
Xusanov Xasanjon Xusanxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	716
Yusufaliyeva Gulnora Abdurahmonovna	
Dirijyor-xormeysterlik bo'yicha kasbiy-kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari	721
Z. A. Nuraliyeva	
Boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv	724
Zaripova Muslima Qurbonovna	
Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati	727
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Norasmiy va informal ta'limni tan olishning konseptual asoslari va rivojlantirish yo'llari	730
Anvar Allabergenov	
Методы совершенствования слуховых навыков через цифровой сторителлинг в начальных школах	735
Раимова Малохатхон	
Biologiya darslari ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish omili sifatida	740
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	



TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Abdumajitova Sayohat Abduqosimovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: STEAM texnologiyasi asosida modullar bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarni tashkil etish natijasida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida mustaqil fikrlashning shakllanishi ham tashqi, ham ichki rag'bat orqali ta'sir etish natijasida amalga oshadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi (shakllantirish) va tarbiyalanuvchi (egallash) ning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasining didaktik mexanizmini sifatli bilim, ko'nikma, malaka egallash maqsadi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyati, mazmun, metod, shakl, vosita va natija tashkil etadi. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning afzalligini ko'rsatuvchi bir qator psixologik omillar mavjud.

Kalit so'zlar: STEAM ta'lim texnologiyasi, Jorjetta Yakman, integratsion ta'lim modeli, izlanuvchanlik va ixtirochilik, muammoli vaziyatlar, diqqat, xotira, nutq va mayda motorika, o'yinlar, qurilish, bilish va tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy va texnik ijodkorlik, badiiy va ijodiy faoliyat turlari – dizayn, multfilmlar yaratish.

Abstract: As a result of the organization of modular training based on STEAM technology, the formation of independent thinking in preschoolers is achieved through exposure to both external and internal incentives. In this process, the purposeful activities of the educator (formation) and the learner (acquisition) are of decisive importance. The didactic mechanism of STEAM technology in preschool education consists of the goal of acquiring quality knowledge, skills, and competencies, as well as the activities of the educator and learner, content, method, form, tools, and results. There are a number of psychological factors that indicate the advantages of using STEAM technology in preschool education.

Key words: STEAM education technology, Georgette Yakman, integrative education model, curiosity and inventiveness, problem situations, attention, memory, speech and fine motor skills, games, construction, cognitive and research activities, scientific and technical creativity, types of artistic and creative activities – design, creating cartoons.

Аннотация: В результате организации занятий по модулям на основе технологии STEAM формирование самостоятельного мышления у воспитанников ДОУ происходит через воздействие как внешних, так и внутренних стимулов. В этом процессе решающее значение приобретает целенаправленная деятельность воспитателя (формирование) и воспитанника (приобретение). Дидактический механизм технологии STEAM в дошкольном образовании состоит из цели приобретения качественных знаний, умений, навыков, деятельности воспитателя и подопечного, содержания, метода, формы, средства, результата. Существует ряд психологических факторов, указывающих на преимущество использования технологии STEAM в дошкольном образовании.

Ключевые слова: технология обучения STEAM, Жоржетта Якман, модель интегративного обучения, любознательность и изобретательность, проблемные ситуации, внимание, память, речь и мелкая моторика, игры, конструирование, познавательная и исследовательская деятельность, научно-техническое творчество, виды художественно-творческой деятельности – конструирование, создание мультфильмов.

KIRISH

STEAM ta'lim texnologiyasi tarixiga nazar tashlaganda, uning asoschisi kim ekanligiga qiziqish tabiiy. Jorjetta Yakman, ya'ni amerikalik o'qituvchi Jorjetta Yakman, STEAM ta'lim texnologiyasi asoschisi hisoblanadi. Jorjetta Yakman 2006-yilda o'zining dizayn yo'nalishidagi maktabida STEAM ta'lim texnologiyasini ishlab chiqdi va 2007-yilda muhandislik va texnologiya o'qituvchisi sifatida uni joriy eta boshladi. Shu asosda 2008-yilda "Integratsion ta'lim modeli"ni yaratdilar. Jorjetta Yakman tez orada mintaqaviy texnologik biznes guruhi tomonidan "Yil o'qituvchisi" deb tanildi va ko'p vaqt o'tmay uni o'qituvchilar tashkiloti prezidenti qilib tayinlashdi. U o'qituvchilik faoliyatida professional rivojlanishda davom etdi va bir necha yil ichida Koreya davlatiga tashrif buyurdi hamda u yerda ta'lim platformasi 2011-yilda butun mamlakat bo'ylab tatbiq etildi, o'zgacha qiziqish hosil



bo'ldi. Keyin u "Big Ideas Fest" e'tirofiga sazovor bo'ldi va Geyts hamda Qatar jamg'armalari tomonidan ma'ruzali chiqishlar namoyish etdilar. 2019-yil yanvar oyida uning kompaniyasida texnologiyani o'rganish yuzasidan AQSHning 40 ta shtati, 3 ta hududi va 24 ta xorijiy davlatlardan o'qituvchilar malaka oshirdilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasining didaktik mexanizmi ishlab chiqilmagan va ushbu texnologiyani samarali qo'llashga oid tavsiyalar yetarli emasligidan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishimiz dolzarb hisoblanadi. Biz jahon olimlari tadqiqotlarida ta'limda STEAM texnologiyasini bosqichma-bosqich kiritish, maktabgacha ta'limda STEAM pedagogik texnologiyalarini qo'llash, STEAM texnologiyasining modullari asosida bolalarga tanqidiy fikrlashni o'rgatish, STEAM texnologiyasining modullar asosida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilganligini o'rganib chiqdik. Jumladan, olimlardan D.N. Shtanko, Yu.A. Kuzmina olib borgan izlanishlarni, aynan STEAM texnologiyasining matematik tasavvurlarni shakllantirish moduli bo'yicha Demina Yelena Serafimovna, Golikov Aleksey Innokentevich, Voronina, Lyudmila Valentinovna, Beloshistaya Anna Vitalevna, Kozlova Valeriya Aleksandrovna, Ye.S. Lixachevalar; STEAM texnologiyasining maktabgacha yoshdagi bolalarga lego konstruktorlash orqali iqtidorini tarbiyalash bo'yicha Maksaeva Yuliya Aleksandrovna, Chikunova Anastasiya Alekseevna, Surif Yelena Albertovna, Luss Tatyana Vyacheslavovna, Ye.A. Rodinalar; STEAM texnologiyasining "Robototexnika moduli" bo'yicha N.A. Fedotova, O.A. Yenik, L.A. Yemelyanova, Ye.A. Babushkina, Z.B. Ryazanova, S.S. Sorokin, S.V. Solin, N.A. Durashova, V.V. Zabolotskaya, L.V. Nikolaevalar; STEAM texnologiyasining "Tabiat bilan tanishtirish moduli" bo'yicha Nikolaeva Svetlana Nikolaevna, Berman Lyudmila Mixaylovna, Axmatgireeva Anastasiya Aleksandrovna, Dimova Valentina Nikolaevna, Gordeeva Darya Sergeevna, Shinkareva Lyudmila Vladimirovna, T.A. Gogoleva, Dranichnikova Yekaterina Abduvalievna ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganliklarini tahlil qildik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) hisoblanadi. Ushbu institutning shiori – "Mens et manus" ("Aql va qo'l"). Massachusetts Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi.

2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan "STEAM Forward" xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi:

- Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta'lim yondashuvi maktabgacha yosh davridan boshlanishi kerak, shuning uchun STEAM dasturlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kiritish lozim.
- Fan tili ingliz tilidir. Agar ilm-fanni o'rganish va olim bo'lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz zarur.
- Qizlar uchun STEAM-ta'lim dasturlari kerak. Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartibiligi tufayli, o'g'il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.
- Science is fun! Ilm-fanda quvnoqlik bo'lishi kerak, u bolalar uchun qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi hamda ko'tarinki kayfiyatda tashkil etilishi lozim.

STEAM texnologiyasi asosida mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol usullardan foydalanish, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga axborotlarni jadal tarzda taqdim etish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, izlanuvchanlik va ixtirochilikka asoslangan ijodiy muhit yaratish, dialogdan samarali foydalanish, bolalarni turli didaktik va rolli o'yinlarga jalb qilish kabi yondashuvlar samarali natija beruvchi innovatsion muhit yaratishga erishilganligini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanish muayyan parametrlar asosida o'lchanadi. Har bir parametr bo'yicha amalga oshirilgan faoliyat STEAM texnologiyasi asosida ta'lim-tarbiya berishga tayyorgarlikni belgilovchi diqqat, xotira, nutq va mayda motorika kabi psixologik omillarga bog'liq. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyachi uchun quyidagi vazifalar ahamiyatli hisoblanadi: STEAM texnologiyasiga asoslangan ta'lim jarayonining barcha bosqichlari va uning natijalarini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qila olish; tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorlik qilishlariga imkon beradigan ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, pedagogik vositalari aniq namoyon bo'lishini ta'minlash; ta'lim mazmuni, o'qitish metodikasi va texnologiyalariga kiritilgan yangi o'quv elementlarini nazariy-didaktik jihatdan asoslab bera olish; olingan natijalarga tayanib, kelgusidagi pedagogik faoliyatlari va hatti-harakatlarini tuzatib, takomillashtirib borish. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanish didaktik jarayonlarni tahlil qilish va o'z faoliyatini tashkil etish metodlarini izchil tadbiq etishga yo'naltirilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Bundan ko'rinadiki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va keyingi ta'lim jara-yonini osonlashtiradi.

Dinamik o'zgaruvchan dunyo sharoitida inson hayotining barcha sohalariga yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. Tadqiqotchilar zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarning 65% kelajakda mavjud bo'lmagan kasblarga ega bo'lishiga ishonishadi. Kelajakda yosh mutaxassislar tabiiy fanlar va muhandislik kabi turli texnologik sohalardan ko'nikma va malakalarga muhtoj bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning 3-7 yosh davrida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish juda qo'l keladi. Ko'pgina tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrini intellektual rivojlanishning eng qulay davri ekanligini isbotlaydilar. Bola hayotining maktabgacha yosh davrida shaxsiy intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Uch yoshga to'lgach, bola hissiy faoliyati, beixtiyor diqqat-e'tibori va og'zaki nutqi, kommunikativ ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Bolada analitik va sintetik faoliyatning murakkab turlari rivojlanadi.

Sezgi a'zolari – ko'rish, eshitish, hid bilish va ta'm bilish sezgi jarayonlarida, idrok tufayli atrofdagi olam bolaga rang-barangligi, turli tovushlar bilan ajralib turadi. Bolaning idroki rivojlanishi bir necha bosqichlarda amalga oshadi. 3-4 yoshda idrok obyektiv bo'ladi, ya'ni bola narsa-obyektning xususiyatlarini obyektning o'zi bilan ajrata olmaydi. 4-5 yoshga to'lgach, asosiy shakllar, ranglar, makon va vaqt haqida ilk tasavvurlari shakllanadi. U obyektning kattaligi va ularni taqqoslash haqidagi g'oyani shakllantiradi. 5-7 yoshda esa bola obyektlar va ularning xususiyatlari haqidagi bilimlari kengayadi, idroki yanada jadal, mazmunli va maqsadga muvofiq rivojlanadi. Bola o'zining shaxsiy tajribasini egallay boshlaydi va shu bilan birga ijtimoiy tajribani ham o'zlashtiradi.

Og'zaki mantiqiy fikrlash "F. Frebelning didaktik tizimi", "Matematik rivojlanish", "Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish" orqali hissiy idrokdan boshlab, bolalarning ilmiy-texnik ijodiyoti uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Shu asosda bolalar "Lego-konstruktorlar", "Multstudiya", "Robototexnika" kabi algoritmlar, loyihalash va dasturlash bo'yicha bilimlarni olish va amalda qo'llash, loyihalash faoliyatini amalga oshiradilar. Bunda bolalarda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning eng muhim sharti bo'lgan ongli harakat qilish qobiliyati rivojlanadi. Belgilangan maqsadlarga erishishda maktabgacha yoshdagi bolalarga xos o'yinlar, qurilish, bilish va tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy va texnik ijodkorlik, badiiy va ijodiy faoliyatning turlari – dizayn, multfilmlar yaratish kabi ijodiy chiqishlar amalga oshiriladi. XXI asr zamonaviy texnologiyalarini rivojlantirishda yuqoridagi faoliyat asos hisoblanadi va bolalarda dasturlash, raqamli texnologiyalar elementlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

STEAM ta'lim texnologiyasining asosiy modullarini amaliyotda qo'llash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: o'yin, qurilish, kognitiv va tadqiqot faoliyati; badiiy va ijodiy faoliyat turlari; XXI asr texnologiyalarini – dasturlash elementlari va raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish.

XULOSA

Idrok orqali tafakkurning rivojlanishiga yo'l ochiladi, og'zaki nutq, diqqat, xotira, tasavvuri rivojlanadi. Diqqat har qanday ongli faoliyatda namoyon bo'ladi, 3-4 yosh davrida bolaning diqqatini faqat atrofdagi narsalarga va beixtiyor diqqat bilan ularga qiziqish uyg'otadigan harakatlarga qaratiladi. 4-6 yoshda esa ixtiyoriy diqqatni o'zlashtira boshlaydi, uni ma'lum narsalarga ongli ravishda yo'naltira oladi. Shunga qaramay, maktabgacha yoshdagi beixtiyor diqqat-e'tibor dominant bo'lib qoladi. Yetti yoshga kelib bolada ixtiyoriy diqqat qobiliyatlari jadal rivojlanadi.

Maktabgacha yosh davri – boladagi xotiraning intensiv rivojlanish davridir. Bu davrda bolada xotira yetakchi kognitiv funksiyaga aylanadi va xilma-xil materiallarni oson yodlab oladi. Shu bilan birga, ongli ravishda biron bir narsani eslash va esda saqlab qolishni o'zlashtira boradi. Bola xotirasida faqat qiziqarli, hissiy kechin-mali voqea-hodisalar, jonli, rang-barang tasvirlar aks ettiriladi. Ixtiyoriy xotira elementlari bolada 5-7 yoshga to'lganida namoyon bo'ladi, ammo maqsadga muvofiq yodlash va eslab qolish vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladi. STEAM ta'lim texnologiyasida o'yin faoliyatidan foydalanilganda, bolaning yoshi va individual xususiyatlariga mos ravishda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoitlar ta'minlanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdumajitova S.A. Steam teaching technology in preschool educational institutions as a factor of early development. *Ekonomika i Sotsium*, 2021, no. 1-1(80), pp. 10–13.
2. Абдумажитова С.А. Концептуальные основы развития творчества детей дошкольников. *Экономика и социум*, 2024, № 10-2(125), с. 579–583.
3. Абдумажитова С.А. Теоретические основы развития у детей чувства времени как эстетического феномена в психолого-педагогической и методической литературе. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 2019, № 3, с. 81–83.
4. Abdumajitova S.A. Conditions for involving children in training groups and quality preparation for school in the Republic of Uzbekistan. *Analysis of World Scientific Views International Scientific Journal*, 2025, vol. 3, no. 1, pp. 81–86.
5. Abdumajitova S.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM o'qitish texnologiyasiga asosan rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish. *Inter Education & Global Study*, 2024, no. 4(2), pp. 16–22.
6. Абдумажитова С.А. Образовательные технологии и дизайн STEAM. *Экономика и социум*, 2024, № 2-2(117), с. 367–370.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.